

NOBIOLOGIK IXTISOSLIK TALABALARIDA EKOLOGIK BILIMLARNI SHAKLLANTIRISH

M.A.Maxammadiyeva

Mustaqil tadqiqotchi

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Annotatsiya: *Ekologik bilimlar nafaqat biologik yoʻnalish talabalari uchun, balki barcha sohalarda tahsil olayotgan talabalarga birdek zarur va muhimdir. Ushbu maqolada nobiologik ixtisoslik talabalarida ekologik bilimlarni shakllantirishning bir qator metodologik asoslari, yoʻnalishlari va samaradorligi muhokama etiladi.*

Kalit soʻzlar: *Ekologik bilim, oʻqitish, oliy taʼlim, nobiologik ixtisoslik, metod.*

KIRISH

Bugungi kunda respublikamiz oliy taʼlimida qoʻllanilayotgan ekologik bilim berish texnologiyalari-uzluksiz yaxlit hodisa boʻlib, u jamiyat tomonidan qoʻyilayotgan talablar va tahsil oluvchi zaruriyatidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yoʻnaltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va shaxsning ichki iqtidori va salohiyatiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

“Texnologiya”- (“texne”- sanʼat, mahorat; “logos”-taʼlimot)- taʼlim jarayonini mahoratona tashkil qilish sanʼati sifatida ham tushuniladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Forobiy fikricha, fan va umuman barcha bilimlar subʼektiv xohish va istakdan emas, balki ularga nisbatan tobora oshib boradigan inson ehtiyojlari natijasida kelib chiqadilar. Forobiyning fanlar tasnifi Sharqda ham, Yevropada ham, kelgusidagi fanlar tasnifiga kuchli taʼsir oʻtkazib, ular taraqqiyotida katta oʻrin tutdi [3].

V.P. Bepalko pedagogik texnologiya – oʻqituvchining mahoratiga bogʻliq boʻlmagan holda pedagogik faoliyat muvaffaqiyatini kafolatlay oluvchi hamda talaba shaxsini shakllantirishga yoʻnaltirilgan jarayonning loyihasi,-deb taʼriflaydi[1].

YUNESKO taʼrifi boʻyicha, taʼlim modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning oʻzaro taʼsirini hisobga olgan holda, butun oʻqitish va bilimlarni oʻzlashtirish jarayonini yaratish, qoʻllash va aniqlash tizimidir.

Atrof-muhitni muhofaza qilish orqali tabiatni asrash, havo, suv va tuproqning toza boʻlishiga erishish orqali oziq-ovqat xavfsizligi taʼminlanishiga erishish qulay hisoblanadi. Bu oʻrinda aytish mumkinki, oʻqitish tizimlari va shakllarini tanlash orqali oʻqitish usullarini ham tanlash kerak. Chunki, oʻqitish maktabgacha taʼlim muassasalarida, maktabda, oliy taʼlimda amalga oshirilishini bilamiz. Biroq, atrof- muhit muhofazasini oʻqitishda atrof-muhitga oʻzining taʼsirini koʻrsatuvchi kishilar asosan halq ommasi boʻlib hisoblanadi. Shuning uchun ham oʻqitishning turini tanlashda aynan ana shu xalq ommasini ham oʻqitish usulini topa bilish lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ekologik bilim berishni amalga oshirishda texnologik yondashuv pedagogik texnologiyalarni quyidagi turlarga ajratib, amalga tatbiq etishda qo'l keladi: "avtoritar", "erkin tarbiya", "antropotsentrik va pedotsentrik", "didaktotsentrik", "sotsiotsentrik", "shaxsga yo'nalgan", "faoliyatga yo'nalgan", "o'rta yo'nalgan". Pedagogik amaliyotda mazkur texnologiyalarning qo'llanilishi ekologik bilim berishning turli xil tizimlarida foydalaniladigan konseptual modellariga, ularning maqsadli yo'nalganligiga, mazmuniga va tamoyillariga bog'liq [1].

Ekologik bilim berish texnologiyalarining xarakterli jihatlari ta'lim sub'ektlarida izlanuvchanlik faoliyatining birgalikda amalga oshirilishidadir. Hissiy-obrazli muhokama va tanlov natijasida shaxslararo mustahkam hamkorlikdagi harakat vujudga keladi. Hamkorlikka oid qat'iy talablarning ishlab chiqilganligi uni o'quv jarayoni bilan birgalikda amalga oshishiga asos bo'ladi. Shu jumladan, ekologik bilim berish texnologiyalari tahsil beruvchidan muayyan pedagogik-psixologik mahorat va yuqori darajadagi fidoiylilikni talab qiladi.

Ekologik bilim berish texnologiyalari talabalarining ekologik kompetensiyalarini rivojlantirishga mo'ljallangan bo'lib, o'qituvchi hamda talabalar orasidagi demokratik munosabatlarni ta'minlash imkonini beradi:

1. Talaba va o'qituvchi orasidagi munosabatlarni barqarorlashtirish;
2. Darsda hamjihatlikka asoslangan ijobiy muhitni vujudga keltirish;
3. Talabalarda ekologik tafakkur va o'z fikrini himoya qilish ko'nikmasini shakllantirish.

4. Pedagogik jarayonda o'qituvchi va talabalar orasida o'zaro tenglikka asoslangan munosabatlarni qaror toptirish kabilarda namoyon bo'ladi

Oliy ta'limda ekologik bilim berish texnologiyalarini amaliyotga tatbiq qilish jarayonida yangi mazmun va mohiyatga ega bo'lgan boshqaruv faoliyati yaratuvchanlik, ijodkorlikka intilish hissi bilan yo'g'rilgan. Bugungi kun o'qituvchisi ta'lim sifati va uzluksizligini ta'minlash va o'zining kasbiy darajasi va malakasini doimiy ravishda oshirib borishi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish asosida o'quv jarayonini uzluksiz takomillashtirib borishi, kasbiy masalalarni yechishga moyil bo'lishi shart.

Oliy ta'limning talabalari uchun atrof-muhitni eng ko'p ifloslovchi omillar – kimyo va energetika (issiqlik elektr stansiyalari) sanoati, transport vositalari hamda tabiiy holdagi vulqonlar otilishi kabilarni tushuntirish mumkin. Bunda respublikamizning kimyo sanoati asosan azotli, fosforli o'g'itlar olinishi bilan, qolaversa, fosforitdan ekstraksiya fosfat kislotalar olish, ularni konsentrlash jarayonlarida ftor azot oksidi, ftorli gazlar chiqishi [3], energetika sohasida ko'plab issiqlik elektr stansiyalarida kul va oltingugurt (IV) oksidi, vulqonlar otilishidan turli xil zararli, zaharli gaz va changlar atmosfera havosini ifloslashini aytib o'tish mumkin.

Eramizdan avvalgi VI asrda yashagan Xitoy faylasufi Konfutsiyni - "Aytsang unutam, ko'rsatsang eslayman, o'zim bajarib ko'rsam mohiyatiga yetaman" – degan falsafiy fikrlari asosida talabalarga kimyo fanini o'qiganligi uchun kimyoviy reaksiyalarni

ko'rsatish orqali tushuntirib, kimyo sanoatiga doir videofilmlar ko'rsatilishi bilan atrof-muhitni ifloslanishi to'g'risida tushuncha hosil qilinishi mumkin.

Hozirgi Yerning global isishida Ozon qatlami yemirilishini sabab qilib ko'rsatilishini ham bemalol Ozon uch atomli kislorod molekulasidan tashkil topganligi, uning ftor, xlor kabi oksidlovchilar ta'sirida yemirilishini izohli darajada tushuntirish mumkin [4].

O'qitish jarayonida hozirgi kunda zamonaviy pedagogik texnologiya qo'llanishi bilan talaba ongiga ekologik bilimni singdirish samara beradi. Agar yoshligidan, ya'ni, maktabgacha tarbiya muassasidan boshlab bilim berilsa, hattoki o'qitish usullari ham bolaga ko'nikma berishi osonlashadi, buning ahamiyatli tomoni shundaki, ushbu bola talaba bo'lgan davrida ham bilimlarni oson egallashiga erishiladi. Agar kompyuter texnologiyasi orqali animatsion programma asosida o'qitish amalga oshiriladigan bo'lsa, qisqa metrajli holatdagi, ya'ni taxminan 5-10 minutli videofilm yoki animatsion materiallardan foydalanish qulay bo'ladi. Bunda talabalar bilimni sinash imkoniyati ham yaratiladi.

Nazariy o'tilgan har bir mavzuga doir amaliy mashg'ulotlar bevosita o'sha mavzu ma'ruzasidan keyin o'tilishi bilan talabada bilim rivojlanishiga erishilishi mumkin.

XULOSA VA MUNOZARA

OTMlarda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish sohasidagi kompetensiyaviy yondashuvga ko'ra, talabalarni ekologik tarbiyalashda o'z kuchiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mustaqil fikrlashini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha xalqaro dasturlar, assisment topshiriqlarini tizimli qo'llash orqali ularning o'quv-biluv motivatsiyasini jadallashtirish muhim ahamiyatga egadir.

Bu esa talabalarda ekologik kompetensiyalarni rivojlantirishni shaxsning ekologik ongini shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik jarayon sifatida baholash mumkin. Unda amalga oshadigan ichki o'zgarishlar shaxs ongi strukturasining faoliyatini ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, ta'lim-tarbiya sifatiga ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Klarin M.V. Pedagogik texnologiyalar.-M.: Bilim, 2017.-276b.
2. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2016. – 247 b.
3. Fozil odamlar shahri. Abu Nasr Forobiy Toshkent "A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi"-1993.
4. Jan-Jak Russo. Tan olish "Xorijiy klassiklar". / Perda. Rozanova M.N. va Gorbova D.A. - M.: "EXMO", 2012 yil.